

TARIX

1. Buyuk yunon koloniyalashtirishi qanday oqibatlariga olib keldi?

1) yunon madaniyatini boyitdi; 2) olimpiada o'yinlariga asos solindi; 3) finikiya alifbosiga asoslangan yangi yozuv vujudga keldi; 4) boshqaruvda demokratiyaga asos solindi; 5) koloniyalar va yunon shaharlari o'rtasidagi mahsulot ayirboshlash, savdo-sotiq va hunarmandchilikning ravnaq topishiga zamin yaratdi.

A) 3,4,5 B) 1,3,5 C) 1,2,3 D) 2,4,5

2. Ikkinchi jahon urushi yillarida qaysi davlat "Kantokuen" rejasini ishlab chiqqan edi?

A) *Buyuk Britaniyada* B) *Italiya* C) *Xitoy*
D) *Yaponiya*

3. 1886- yilgi "Turkiston o'lkasini idora qilish to'g'risidagi Nizom" ning asosiy maqsadi nimadan iborat edi?

A) *o'lkada ko'plab ruslar manfaatini ko'zlovchi shaxslarni shakllantirish*
B) *o'lkada diniy muassasalar faoliyatini butunlay to'xtatish*
C) *o'lkada yangi yerlarni o'zlashtirish va korxonalar barpo etish*
D) *o'lkada ma'muriy boshqaruvni mustahkamlash va yerdan foydalanish tartiblarini o'zgartirish*

4. "Taypin-tango" davlatida harbiy qismlar hududlarga joylashtirilgan bo'lib, ushbu hududlarda davlat hokimiyati kim tomonidan amalga oshirilgan?

A) *harbiy qism boshlig'i*
B) *mahalliy Oqsoqollar*
C) *viloyat hokimi*
D) *imperator noibi*

5. 1618-1648- yillarda bo'lib o'tgan "O'ttiz yillik urush" natijasida quyidagi qaysi davlat Boltiq bo'yida hukmronlik o'rnatish borasida katta imkoniyatni qo'lga kiritdi?

A) *Gollandiya* B) *Shvetsiya* C) *Fransiya*
D) *Danya*

6. Oltin O'rdada qo'shin boshlig'i kim bo'lgan?

A) *mo'g'ul zodagonlari*
B) *bosqoqlar*
C) *beklarbegi*
D) *ulusbegi*

7. Turkiston Muxtoriyati tashkil topgan sanani aniqlang?

A) *1917- yil 26-28- noyabr*
B) *1914- yil 25-28- noyabr*
C) *1916 - yil 27-28- dekabr*
D) *1918 - yil 24-25- noyabr*

8. O'zbekiston SSRning birinchi Konstitutsiyasi qabul qilingan yilni aniqlang.

A) *1927-yil* B) *1928-yil* C) *1930-yil*
D) *1925-yil*

9. Afirka mustamlakachiligi davrida qaysi davlatlar o'z mustaqilligini saqlab qolgan?

A) *Efiopiya va Libiriya*
B) *Tunis va Misr*
C) *Angola va Mazambik*
D) *Libiriya va Samoli*

10. 1865- yilda tashkil etilgan Turkiston viloyati gubernatori bo'lgan shaxslarni aniqlang.

1) M.Cherniyayev; 2) V.Veryovkin; 3) F.Ramonovskiy; 4) Kaufman; 5) M.Skobelev.
A) *1,2* B) *3,4* C) *1,4* D) *1,3*

11. Qaysi Qo'qon xoni davrida vodiya Yangiariq kanali barpo etilgan?

A) *Umarxon* B) *Madalixon* C) *Olimxon*
D) *Sheralixon*

12. Rossiyaning Alyaskani AQSHga sotib yuborishining sababi nimada edi?

A) *Rossiyaning iqtisodiy inqiroz qamrab olganligi uchun*
B) *G'arbiy Yevropa davlatlariga tazyiq o'tkazish uchun*
C) *tashqi siyosatida AQSHga tayanish uchun*
D) *savdo-sotiq va dengiz yo'llarida erkin savdo qilish uchun*

13. Somoniylar va G'aznaviylardan bir vaqtda hukmronligi tugagan hukmdorlarni aniqlang.

A) *Nuh ibn Mansur va Sobuqtegin*
B) *Ismoil va Mahmud*
C) *Nasr II va Alptegin*
D) *Nuh ibn Nasr va Sobuqtegin*

14. Qaysi Fransiya rahbari Germaniya masalasida AQSH va Buyuk Britaniya oldida taslimchilik siyosatini yurgizgan edi?

A) *L. Blyum* B) *E. Errio* C) *Ye. Dalad'e*
D) *R. Puankare*

15. Buyuk Britaniyada sanoat to'ntarishi boshlangan davri aniqlang.

A) *XVIII asming birinchi yarmidan*
B) *XVIII asming o'rtalaridan*
C) *XVIII asming ikkinchi yarmidan*
D) *XIX asming boshlaridan*

16. Angliya qiroli Richard I Sheryurak nechanchi salib yurishida ishtirok etgan?

A) *uchinchi* B) *sakkizinchi* C) *to'rtinchi*
D) *birinchi*

17. Ulug'bek farmoni bilan qurilgan quyidagi madrasalarni yillariga ko'ra ketma-ketlikda to'g'ri joylashtiring.

1) Buxoro madrasasi; 2) G'ijduvon; 3) Samarqand.

- A) 1,2,3 B) 3,1,2 C) 1,3,2
D) 2,1,3

18. Fransiyadagi Ikkinchi imperiya davridagi bir oilaning hayoti va ijtimoiy tarixiga bag'ishlangan asarni aniqlang.

- A) "Yigirma yil ichida"
B) "Sodiq fuqaro"
C) "Rugon - Makkarlar"
D) "Maydondagi yarmarka"

19. 1923-yilda Italiya qaysi davlatga qarashli Korfu orolini bosib oldi?

- A) Turkiyaga B) Gretsiyaga C) Ruminiyaga
D) Ispaniyaga

20. Qaysi AQSH Prezidenti Lotin Amerikasi davlatlari bilan munosabatda "yaxshi qo'shnichilik" tamoyilini e'lon qiladi?

- A) J.Kennedi B) J.Karter C) G.Trumen
D) F.Ruzvelt

21. Turkiyada 1961- yilda Konstitutsiya qabul qilingandan so'ng tashkil topgan partiyalarni aniqlang.

- 1) "Adolat partiyasi"; 2) "To'g'ri yo'l"; 3) "Yangi Turkiya partiyasi"; 4) "Vatan partiyasi"; 5) "Xalq partiyasi".
A) 1,3 B) 2,4 C) 3,5 D) 1,4

22. Nechanchi yilda Jahon Tinchlik Kengashi buyuk davlatlar o'rtasida "Tinchlik pakti" ni imzolash to'g'risida murojaat qabul qildi?

- A) 1952-yil B) 1949-yil C) 1950-yil
D) 1951-yil

23. 1920-yil boshlarida sovet qo'shinlari Norin va Qoradaryoning qo's-hilish joyida qaysi sarkarda lashkarlariga katta talafot yetkazdi?

- A) Madaminbek
B) Shermuhammadbek
C) Katta Ergash
D) Xolxo'ja

24. O'zbekiston qachon SSSR tarkibiga kiritildi?

- A) 1922-yil dekabr B) 1924-yil aprel
C) 1925-yil may D) 1926-yil yanvar

25. Qaysi olim jahonda eng yaxshi standartli paxta sellulozasini olish texnologiyasini ishlab chiqqan?

- A) V. Qobulov B) H. Usmonov

C) O. Sodiqov

D) H. Abdullayev

26. Koreya yarimorolidagi qaysi davlat X asrda ko'chmanchi kidanlar zarbasidan so'ng parchlanib ketadi?

- A) Parxe B) Silla C) Koryo D) Koguryo

27. Yangi Bobil hukmdori Navuxodonosor II qaysi davlatni o'z davlatiga qo'shib olgan?

- A) Fors podsholigini B) Misrni
C) Suriyani D) Metannini

28. Berlin kongressi qaysi davlat zimmasiga chet el tovarlaridan tranzit boj olmaslik va unga Turkiyadan olib berilgan yangi hududlarga mutanosib miqdorda Turkiyaning chet el davlatlari oldidagi qarzini to'lash majburiyatini yukladi?

- A) Bolgariya B) Bosniya
C) Albaniya D) Serbiya

29. Sulton Murodbek madrasasi madrasasi qurilgan yilda sodir bo'lgan voqeani aniqlang.

- A) AQSH Kongressi Janubdagi sobiq isyonchilarga umumiy afv berish to'g'risida qonun qabul qildi.
B) Germaniyaning Frankfort shahrida Fransiya —Germaniya sulh shartnomasi imzolandi.
C) Fransiyada Uchinchi Respublika Konstitutsiyasi qabul qilindi.
D) Ark darvozasi qarshisida Muhammad Rahimxon madrasasi qurildi.

30. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1993-yildayoq BMT e'tiborini Afg'oniston muammosiga qaratgan edi va, birinchi navbatda, ...

- A) xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tashkil etish masalasini keskin qo'ydi.
B) muxolif kuchlarga qurol sotilishini taqiqlab qo'yishni taklif etgandi.
C) Toshkentda mintaqaviy aksilterror tuzilmasi ijroiya qo'mitasini ishga tushirishni taklif etgandi.
D) terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasida konvensiya imzolashni taklif etgandi.